

IV BO'LIM. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, KUTUBXONASHUNOSLIK

Maxsuma Xojimatova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Sahna nutqi" kafedrasi professori
E-mail: xojimatova1966@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3138-0114*

ROZIYA USMONOVA ILMIY-IJODIY YO'LI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston teatr san'ati va sahna nutqi ta'limi rivojiga munosib hissa qo'shgan mohir pedagog, sahna nutqi fani fidoyisi Roziya Usmonovanning ijodiy va pedagogik faoliyati yoritilgan. Ustozning san'at olamiga kirib kelishi, aktyorlik faoliyati, sahna nutqi sohasidagi ustozlardan olgan saboqlari hamda ko'p yillik pedagogik tajribasi tahlil etilgan. Roziya Usmonovanning ilmiy-uslubiy va pedagogik merosini o'rganish hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy teatr ta'limi va milliy sahna nutqi madaniyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekani asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, teatr ta'limi, sahna nutqini o'qitish metodikasi, ijodiy meros, "ustoz-shogird" an'anasi.*

НАУЧНО-ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ РОЗИИ УСМАНОВОЙ

***Аннотация.** В статье освещается творческая и педагогическая деятельность талантливого педагога, преданного своему делу специалиста в области сценической речи Розии Усмановой, внесшей значительный вклад в развитие театрального искусства Узбекистана и образования в области сценической речи. Анализируются её приход в мир искусства, актёрская деятельность, знания и профессиональные навыки, полученные у мастеров сценической речи, а также многолетний педагогический опыт. Обосновывается, что изучение научно-методического и педагогического наследия Розии Усмановой и его внедрение в образовательный процесс являются одним из важных факторов развития современного театрального образования и культуры национальной сценической речи.*

Ключевые слова: педагогическое мастерство, театральное образование, методика преподавания сценической речи, творческое наследие, традиция «учитель-ученик».

ROZIYA USMANOVA'S SCIENTIFIC AND CREATIVE JOURNEY

Abstract. *This article highlights the creative and pedagogical activities of Roziya Usmanova, a skilled educator and dedicated specialist in stage speech who made a significant contribution to the development of Uzbek theatre art and stage speech education. The article analyzes her entry into the world of art, her acting career, the knowledge and professional skills she gained from prominent masters of stage speech, as well as her many years of pedagogical experience. It is substantiated that the study of Roziya Usmanova's scholarly, methodological, and pedagogical legacy and its integration into the educational process are important factors in the development of modern theatre education and the culture of national stage speech.*

Keywords: *pedagogical mastery, theatre education, methods of teaching stage speech, creative legacy, "teacher-student" tradition.*

Teatr san'atining zahmatkashlari va badiiy so'z san'ati fidoiylari bugungi kunda to'liq ma'nodagi millatning ko'zgusi, milliy g'oya, san'at va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatning targ'ibotchilaridir. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Sahna nutqi" kafedrasi teatr ta'limi hamda badiiy o'qish tizimida ko'p yillik tarix va boy ilmiy-ijodiy an'analarga ega bo'lgan yetakchi ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi. Kafedra o'zining uzoq yillik faoliyati davomida sahna nutqi san'atining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, badiiy so'z madaniyatini yuksaltirish hamda iqtidorli va malakali aktyor, rejissyor, boshlovchi va pedagog kadrlarni tayyorlashda o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Kafedra faoliyati o'zbek sahna nutqi madaniyatini shakllantirgan ustozlar merosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham mazkur an'analarni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Bugungi zamonaviy jarayonda kafedra ta'lim, ilm-fan va ijodiy amaliyot uyg'unligi asosida faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda sahna nutqini o'qitish jarayonida shakllangan pedagogik yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar, metodik ishlanmalar ustoz pedagoglar tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, risolalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar orqali ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Mazkur ilmiy-uslubiy manbalar nafaqat kafedra o'qituvchilari, balki yosh pedagoglar, tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar uchun ham muhim o'quv-metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Roziya Usmonovanning ko'p yillik ilmiy-amaliy izlanishlari natijasida matbuotda, ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda institut pedagoglarining "Ilmiy qaydlar" to'plamlarida chop etilgan maqolalari, shuningdek, "Nutq san'atida tez aytishning ahamiyati" nomli o'quv qo'llanmasi sahna nutqi fanini o'qitish jarayonida muhim metodik manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, san'at ta'limi sohasida faoliyat yuritgan ko'plab mahoratli pedagoglar o'zlarining boy amaliy tajribalarini nazariy jihatdan umumlashtirish va ilmiy-uslubiy shaklda yoritish imkoniyatiga har doim ham ega bo'la olmaganlar. Shu sababli ularning pedagogik uslublari, ta'lim jarayonidagi metodik yondashuvlari va amaliy tajribalari ko'p hollarda teatrshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan.

Teatr ta'limida aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlarining ilmiy-uslubiy asoslarini shakllantirishda tajribali pedagoglarning xizmati alohida ahamiyat kasb etgan. Jumladan, 1953-yildan boshlab o'zi badiiy rahbarlik qilayotgan kurslarda "Aktyorlik mahorati" va "Sahna nutqi" fanlarini o'qitish maqsadida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent Abdurahmon Sayfiddinov pedagogik faoliyatga jalb etilgan. Shuningdek, 1958-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Zuhra Olimjonova, 1961-yilda esa katta o'qituvchi Roziya Usmonova Sahna nutqi kafedrasi pedagoglari safidan o'rin olgan [1].

Roziya Usmonovanning mazkur kafedradagi faoliyati teatr san'ati ta'limida yangi pedagogik yondashuvlar, sahna nutqini o'qitish metodikasi va badiiy so'z ijrochiligi maktabining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Uning ko'p yillik ilmiy-

amaliy izlanishlari, pedagogik tajribasi va ijodiy faoliyati nafaqat talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirishga, balki sahna nutqi sohasidagi milliy ta'lim an'alarining davomiyligini ta'minlashga ham xizmat qildi.

“Sahna nutqi” kafedrasining faxriy ustozlaridan sanalgan Roziyaxon Usmonova 1939-yil 9-avgustda Toshkentning Sebzor dahasida tug'ilgan. Otalari Muhammadjon aka va onajonlari Mukkaramxon opa. Ularning sakkiz nafar farzandlari bo'lib, shundan ikki o'g'il olti qiz. Roziyaxon opa oilada to'ng'ich farzand hisoblanadi. Oilasida va yaqin qarindoshlar orasida san'atkorlar bo'lmagan. Otalari ish ustida mumtoz qo'shiqlarni aytib hirgoyi qilardilar, o'zlariga xos shirali ovoz sohibi edilar. Onalari ham san'atga ixlosmand kishi bo'lganlar. Roziyaxon opaning opa-singillari bilan, albatta, radio orqali ancha keyinroq esa televizordan beriladigan adabiiy-badiiy, musiqiy ko'rsatuvlarga qiziqishlari, teatr tomoshalariga borishlaridanoq ularda san'atga ishtiyoq oila muhitida uyg'onganini bilsa bo'ladi. Roziya Usmonova maktab chog'larini shunday xotirlaydi: “Bitta Vazira degan o'rtog'im bilan o'sha paytdagi Ostrovskiy saroyiga drama to'garagiga borib qoldik. Adabiyot to'garagiga ham kirdik. U yerda taniqli Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar bor edi o'sha paytda. Ozgina she'r yozgan bo'ldik. Uchqun Raxmonov degan odam drama kursi rahbari ekan. Juda bolajon kishi edi, odamni qiziqtiradigan muomalalari bilan bizni drama kursiga olib kirib ketdilar” [2]. U yerdagi to'garakda aktyorlikning boshlang'ich ta'limini olgan Roziyaxon Usmonova spektakllarda katta-kichik rollarni ijro etti. “Xatarli yo'l yoqasida”, “Abdulla Nabiye” va yana bir qancha spektakllarni sahnalashtirishdi. To'garakda sahnalashtirilgan “Abdulla Nabiye” nomli asarda Roziya opa qahramonning onasini, uning o'g'li – Abdulla Nabiye rolini esa Arsen Ismoilov ijro etgan. Keyinchalik ular institutda kursdosh bo'ldilar. Shu yo'sinda bir qancha sahna asarlarida ishtirok etib kelishdi. Bu qalbi qaynoq, san'atga ixlosi baland yosh qalblarning sahna san'atiga oshufta bo'lib shakllanish davrlari edi.

Maktabni bitirib, teatr san'ati institutiga o'qishga kirishini ota-onasiga aytganda, otalari qiyin kasb ekanini, bu kasb ayniqsa ayollarga og'irligi, hamma

ham eplab ketolmasligini aytadilar. To'garaklarda rollar ijro etib, san'atga havasi uyg'ongan Roziyaxon o'ylab ham o'tirmay "men o'qiyman, ko'raychi aktrisa bo'lmasam, balki o'qituvchi bo'larman" deb javob beradi. Qizining qat'iyat bilan aytgan gapi otasiga ma'qul tushib, uning o'qishga kirishiga rozilik beradi. Onasi qizining qiziqishlari va san'atga bo'lgan intilishlaridan xabardor edi, shuning uchun qarshilik qilmadi.

O'rta maktabni bitirgan qahramonimiz katta orzular bilan 1957-yili A.N.Ostrovskiy nomidagi, Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutiga, "Dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishiga o'qishga qabul qilinadi. 1960-yili Roziyaxon Usmonova o'qiyotgan guruh ijodiy amaliyot uchun ustozlari O'zbekiston xalq artisti, taniqli rejissyor, Toshxo'ja Xo'jayev boshchiligida "Hamza" nomli (hozirgi Milliy akademik drama teatri) teatriga ijodiy amaliyot o'tash uchun biriktirildi. Guruh talabalari Shekspirning "Yuliy Sezar" asarida ommaviy sahnalarda va teatr repertuaridagi boshqa spektakllarda ham ishtirok eta boshladilar. Roziyaxon opaning katta sahnadagi birinchi roli rejissyor A.Qobulov sahnalashtirgan O.Yoqubovning "Olma gullaganda" asari asosidagi spektaklidagi kichik bir personajni edi. Shundan keyin talaba-aktrisada sahna san'atiga ishtiyoq yanada ortib ketadi.

Roziyaxon Usmonovanning institutni bitirgunga qadar keyingi ijodiy ishlari milliy teatr sahnasida bo'ldi. Buni qarangki, orzulari bir olam, yuragi sahna zavqi bilan to'lgan ijodkor qizning hayotiga uni zimdan kuzatib, unga ko'ngil qo'ygan inson kirib keldi. Teatrning o'sha paytdagi repertuaridan joy olgan F.Shillerning "Makr va muhabbat" asaridagi Vurm rolini Po'lat Saidqosimov ijro etardi. Roziyaxon uning ijrosini ko'rib, "qobiliyatli aktyor ekan" deya e'tirof qilgandi. Po'lat aka ham Roziyaxonning ijrolarini tomosha qilish barobarida, undagi qizlarga xos ajib latofat, shirinso'zlik, mehnatkashlikni ko'rib qalblarida iliqlik paydo bo'lgan. San'atga bo'lgan oshuftalik ularni bir-biriga yaqinlashtirdi. 1960-yili, ya'ni uchinchi kursni bitirish arafasida teatr va kino san'atining mahoratli aktyori

O'zbekiston xalq artisti Po'lat Saidqosimov bilan turmush qurishdi. Endi ular san'at olamining qizg'in jarayonlarini birgalikda ijod qilib davom ettirishdi.

Aktyorlik mahoratining “qon tomiri” hisoblangan “Sahna nutqi” fanining yana bir zabardast jonkuyari, mubolag'asiz ko'p san'atkorlarning “Onajon – ustoz” sanalgan O'zbekiston xalq artisti, professor Nazira Aliyevadan so'z san'ati sirlarini qiziqish bilan o'rgana boshlagan. “Nazira opa katta-yu, kichikka juda e'tiborli, mehribon bilimdon, nozik tabiatli va ziyoli ayol bo'lgan. Darslardan tashqari ularning uylariga borib ham vazifalarimni tayyorlar edim. Institutda bo'lib o'tadigan ijodiy kechalar va tadbirlarda ham ijrochi, ham boshlovchi sifatida ishtirok etar edim. Bular, albatta, Nazira opaning nazoratlari ostida bo'lar edi. Roziyaxon opa pedagoglik faoliyatini boshlaganda Nazira opa bilan birga ishlashgan. Juda ko'p o'quvchilarga birgalikda dars berishgan. Nazira opa juda didli, salobatli, og'ir vazmin ayol edilar. Talabalarga yondoshish tomonlarini alohida e'tibor bilan o'rgangan. Nazira opa o'quvchilarga chiroyli muomala qilib, sekin, barmoqlarni bir xilda, shoshmasdan, bolalarga tushunarli qilib gapirishlari, xuddi onalardek bolalarga erkinlik berib, shu bolalardagi qanaqa kamchilik bo'lmasin, o'shalarni tuzatish yo'llarini, ustamonlik bilan bajarardilar. Nazira opadan texnik mashqlarni ham o'rgangan. Tovushlarni burro-burro, aniq aytishga, so'zlarni, jummalarni, tez aytishlar, ruboiylar, maqollar va hokazolarni maqsad qo'yib aytishga yo'naltirardilar” [3].

Bunday tahlillardan ko'zlangan asosiy maqsad matnni shunchaki yodlash emas, balki uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, har bir so'z zamiridagi hayotiy haqiqatni his etishdan iborat edi. Ustozlar talabalardan asarda ifodalangan fazilatlarga shaxsiy munosabat bildirishni, “Bu fazilatlarga munosabating qanday? Yaxshilikka havasing, yomonlikka nafrating qay darajada?” kabi savollarga samimiy javob topishni talab qilar edilar. Muallifning qayd etishicha, ustozlar she'r yoki adabiy matn ijrosi faqat uning ichki mazmuni qalbdan his etilgandagina samimiy, ishonarli va ta'sirchan bo'lishini doimo uqtirar edilar. Keyinchalik Roziyaxon opa ko'zi ojizlar jamiyatida ham bir necha yil faoliyat yuritganini

ta'kidlaydi. Uning yozishicha, bu sohada ishlashga kitoblarga bo'lgan qiziqishi hamda ko'zi ojiz insonlarning adabiyotdan bahramand bo'lishiga ko'maklashish istagi turtki bo'lgan. Bu yerda u Chingiz Aytmatov, Abdulla Oripov va boshqa adib hamda shoirlarning asarlarini ovozli ijro qilib, ko'zi ojiz tinglovchilar uchun mutolaa qilib bergan.

Roziyaxon opaning ta'kidlashicha, keyinchalik faoliyatini O'zbekiston davlat madaniyat institutida davom ettirgan. Institutda yosh o'qituvchi sifatida ish boshlagan dastlabki yillarda ustozlaridan o'rgangan pedagogik metodika va tajribalar unga katta yordam bergan. Ilk faoliyatida professor Nazira Aliyeva bilan birgalikda birinchi kurs talabalariga dars bergan. Dars jarayonida har bir talaba bilan alohida tanishish, ularning ovoz imkoniyatlari, nutqidagi kamchiliklari, dunyoqarashi, mutolaa madaniyati, qiziqishlari, teatr institutini tanlash sabablari hamda san'at haqidagi tasavvurlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu orqali talabalarning ichki dunyosi va ijodiy salohiyatini chuqurroq anglash maqsad qilingan.

Roziyaxon Usmonova 1980-yilda institutdagi bir guruh yosh o'qituvchilar bilan Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Aktyorlik mahorati va Sahna nutqi bo'yicha malaka oshirish kursida ham tahsil olganlar. Fanga oid yangiliklar bilan birga spektakllar ko'rish, teatr va kino san'ati pedagog, rejissyor va aktyorlari bilan uchrashuvlar bir olam taassurotlarga boy bo'lgan. Bir muddat o'tib Moskva va Ukrainaning Kiyev shahriga ham institut jamoasi bilan borganligi, san'at institutlaridagi o'qitish ishlari, teatrlar faoliyati, madaniy maskanlar, muzeylarida bo'lib ijodiy va pedagogik faoliyati davomida amaliy va nazariy, ijod yo'lidagi katta maqsadlar sari odimlashda tajriba maktabi bo'lib xizmat qildi. O'qituvchilik faoliyatining boshlanishida faqat dramatik teatr va kino aktyorligi talabalariga ustozlik qilgan bo'lsalar, keyinchalik, musiqali teatr aktyorligi, qoraqalpoq guruhlarida ham dars berganlar. Ota-ona farzandi yutug'idan qanday quvonsa, ustoz ham bergan ta'lim-tarbiyasi mevasidan quvonadi, mehnati zoye ketmaganidan ko'ngli taskin topadi. "Men o'z ustozlarimdan qanday faxrlansam, shogirdlarimdan

ham doimo xursandman, ularni juda hurmat qilaman. Teatr, kino televideniyaedagi ijodlari haqiqatdan ham havasli. Ularning san'atga e'tiqodi baland bo'ldi. Bu dunyodan o'tganlarini oxirlari obod bo'lsin. Qolganlari salomat bo'lishsin". Roziyaxon opa pedagogik faoliyati davomida juda ko'p iqtidorli va iste'dodli talabalarga ta'lim berish nasib etgan. Roziya opaning o'qitgan talabalari orasida Vladimir Yaxontov nomidagi "Butunittifoq badiiy so'z ustalari konkursi" g'oliblari ham bo'lgan. Bular O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Shohida Ismoilova, Raxmatilla Mirzayev. Nafaqat poytaxtda, balki respublikaning turli hududlarida faoliyat olib borayotgan ko'plab shogirdlari bilan faxrlanishini ta'kidlaydi. Ular hozir yurtimiz teatrlarida, kinoda, televideniyaeda o'z o'rinlarini topib, barchaning sevimli ijodkoriga aylanib ulgurishgan. Ular qatorida O'zbekiston xalq artistlari – O'zbekiston xalq artistlari Yodgor Sa'diyev, Gavhar Zokirova, Bahodir Yo'ldoshev, Matluba Dadaboyeva, O'tkir Siddiqov, Dilbar Ikromova, Malika Ibragimova, Saidkomil Umarov, Najmiddin Ansatboyev, Dilorom Karimova, Hojiakbar Nurmatov, Oybachin Bakirova, Tohir Saidov, Uchqun Tillayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog'iston san'at arbobi, professor Baxtiyor Sayfullayev, rejissyor Rustam To'rayev, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent, Oybek Veysal, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Jamshid Zokirov, To'xtamurod Azizov, Fotih Jalolov, Fathulla Ma'sudov, Botir Muhammadxo'jayev, Rahmatilla Mirzayev, Shohida Uzoqova, Shohida Ismoilova va xalqning qalbidan o'rin olgan san'atkorlarga ustozlik qilganlarini faxr va iftixor bilan aytib o'tishni joiz deb bildik.

Qahramonimiz, tabarruk yoshdagi ustozimiz Roziya Usmonovanning ham pedagogik mahorati va uslublari haqidagi ushbu monografiya so'z san'ati ijrochiligi va teatr san'atida tadqiqot qilayotgan yosh izlanuvchilarga dasturulamal bo'lib xizmat qilishi maqsadida taqdim etilmoqda. Ustozning yana ko'p yillar safimizda bo'lib, sog' va salomat, uzoq umr ko'rishlarini tilaymiz. "Sahna nutqi" fanini o'qitishdagi yana ko'plab uslubiy-amaliy ishlari borki, uni o'rganishda, izlanishda davom etamiz.

Har bir buyuk san'atkorning ortida, uning ijodiy yo'lini yoritgan, tafakkurini boyitgan, qalbiga san'at nurini kim oshirdi degan savolga javob qidirsak, albatta, bir ustoz siymosi namoyon bo'ladi. San'at – vorislik zanjiri: u hech qachon bo'shliqdan tug'ilmaydi, balki avloddan-avlodga, qalbdan-qalbga o'tib, sayqallanib, boyib boradi. Roziya Usmonova kabi ustozlarning xizmati ana shu zanjirning uzilmasligini ta'minlashdadir. Ustoz – shunchaki bilim beruvchi emas, balki shogirdning ichidagi yashirin iste'dodni ko'ra biladigan, uni yo'naltiradigan, sabr bilan tarbiyalaydigan inson. Roziya Usmonova o'z shogirdlariga nafaqat kasb sirlarini, balki san'atga, mehnatga, milliy qadriyatlarga bo'lgan chin muhabbatni ham singdirgan. Uning maktabidan o'tgan har bir shogird o'zida shu ustozning ruhini, uslubini, hayotiy va ijodiy prinsiplarini olib yuradi va bu meros keyingi avlodlarga ham o'z navbatida o'tadi. Shuning uchun bunday ustozlarni ardoqlash, ularning xotirasini e'zozlash, ijodiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, bu – shaxsga bo'lgan hurmatgina emas, balki butun bir san'at maktabining, milliy an'ananing davomiyligini ta'minlash demakdir.

Xulosa qilib aytganda, Roziya Usmonovanning ijodiy va pedagogik faoliyatini o'rganish nafaqat bir san'atkor taqdirini tadqiq etish, balki o'zbek san'ati tarixidagi butun bir davr, bir maktab, bir an'anani anglash imkonini beradi. Bunday shaxslarning merosini asrab-avaylash – bugungi va ertangi avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanova D. *Sahna nutqi kafedrasi: tarixi va buguni*. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 268 b.
2. Muallifning Roziya Usmonova bilan suhbatidan. 2025.
3. Azizov T. *Mening rejissyorlik ishlarim*. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 271 b.
4. Milliy teatrimiz namoyandalari // O'tkir Shokirov, Muhammadali Abduqunduzov. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2002.